

2020- yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy
iste'mol narxlari indeksi (INI), % da

2019- yil noyabr

101,7
2019- yilning
oktabriga
nisbatan

113,3
2018- yilning
dekabriga
nisbatan

115,6
2018- yilning
noyabriga
nisbatan

2020- yil noyabr

101,5
2020- yilning
oktabriga
nisbatan

109,5
2019- yilning
dekabriga
nisbatan

111,3
2019- yilning
noyabriga
nisbatan

✓ 2020- yilning noyabrida o'rtacha iste'mol narxlari va tariflari darajasining oy davomidagi o'sish sur'ati:

1,5 %

✓ 2019- yilning noyabrida tovarlar va xizmatlar narxlarining oy davomidagi o'rtacha ko'tarilish darajasi:

1,7 %

✓ 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol bozoridagi narxlari va tariflarning o'sish darajasi:

9,5 %

✓ 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol bozoridagi narxlari va tariflarning o'sish darajasi:

13,3 %

✓ 2020- yilning noyabr oyida yillik umumiy INIning o'sish sur'ati:

11,3 %

✓ 2018- yilning noyabriga nisbatan 2019- yilning noyabrida tovarlar va xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati:

15,6 %


2020- yilning yanvar-noyabrida **o'rtacha oylik INI¹** o'sishi sur'ati **0,8 %** ni, 2019- yilning shu davrida **1,1 %** ni tashkil etgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, % da




o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



¹ Narxlar indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati, ko'rib chiqilayotgan davrning har bir oyi uchun qisqa muddatli narx indekslarining oldingi oyiga nisbatan o'rtacha geometrik qiymati sifatida hisoblanadi.


Joriy yilning noyabr oyida **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari o'ttacha **2,4 % ga**, **nooziq-ovqat mahsulotlar 0,9 % ga** va **xizmatlar 0,9 % ga** qimmatlashdi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining INI dinamikasi, % da

o'tgan oyga nisbatan


Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar




Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari 3,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 0,8 % va xizmatlar 0,6 % ga qimmatlashgan.



**2020- yilning noyabr oyida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy tovarlar
va xizmatlar guruhi narxlari o'zgarishining umumiyligi
INIga ta'siri, f.d.***

o'tgan oyga nisbatan

Barcha tovarlar va xizmatlar



✓ **Oziq-ovqat mahsulotlari** narxlarining ko'tarilishi hisobiga umumiyligi INI ko'rsatkichi **1,0 f.d.**ga o'sib, umumiyligi o'sish sur'atining **66,7 %**ini tashkil etdi.

✓ **Nooziq-ovqat mahsulotlar** narxlarining ko'tarilishi umumiyligi ko'rsatkichning oy davomidagi o'sishiga **0,3 f.d.** ta'sir etdi (umumiyligi o'sish sur'atidagi ulushi **20,0 %**).

✓ **Xizmatlar** narxlari va tariflarining o'sishi natijasida umumiyligi INI qo'shimcha ravishda **0,1 f.d.**ga oshdi (umumiyligi o'sish sur'atidagi ulushi **13,0 %**).


*) shu va keyingi o'rinnlarda foiz darajasi.

Ma'lumot uchun: oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi hisobiga 2019- yilning noyabrida oylik umumiyl INI 1,3 f.d.ga ko'tarilgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sirida esa 0,3 f.d.ga, xizmatlar tariflarining qimmatlashishi natijasida 0,1 f.d.ga oshgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining umumiyl INI o'sishi (pasayishi)dagi ta'siri, f.d.

o'tgan oyga nisbatan



2020- yil



2019- yil

Izoh: ma'lumotlar 0,1 f.d.gacha yaxlitlangan.

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining oylik umumiy ko'rsatkichning o'sishidagi hissasi 0,1-0,4 f.d., aholi uchun pullik xizmatlarning ta'siri ulushi esa 0,1-0,2 f.d. oraliqda tebrangan. Joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasining hissasi birmuncha kengroq diapazonga ega bo'ldi.(-0,6 f.d.dan 1,4 f.d.gacha). Shu bilan birga, joriy yilning so'nggi uch oyi davomida oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi ta'sirining ustunligi saqlanib (0,9-1,0 f.d.), nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha ushbu ko'rsatkich 0,3-0,4 f.d., xizmatlar bo'yicha esa 0,1-0,2 f.d.ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasining ta'siri darajasi -0,9 f.d.dan 1,3 f.d.gacha oraliqni tashkil etgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sir darajasi 0,1 f.d.dan 0,7 f.d.gacha, xizmatlar bo'yicha esa 0,1 f.d.dan 1,2 f.d.gachani tashkil etgan.

Umumiy hisobda, 2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari darajasi **12,6 %**, **nooziq-ovqat mahsulotlar** **7,8 %**, **xizmatlar** **6,1 %**ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-noyabrida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar, shuningdek, xizmatlar narxlarining o'sishi mos ravishda 14,8 %, 10,4 % va 14,9 % ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining INI, % da

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

2019- yil noyabr

2020- yil noyabr

114,8

110,4

114,9

112,6

107,8

106,1



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

Quyida o'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019 va 2020- yillarning yanvar-noyabrida tovarlar va xizmatlarning asosiy guruhlari bo'yicha INI dinamikalarining taqqoslamasi keltirilgan.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining INI dinamikasi, % da

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar




Xizmatlar



O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2020- yilning avvalgi oylaridagi kabi INI o'sishidagi hissasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishi ta'sirining ustunligi saqlanib qolgan.



2020- yilning yanvar-noyabrida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining umumiy INI o'sishidagi ta'siri, f.d.



Jami tovarlar va xizmatlar
Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlar
Xizmatlar

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning noyabr oyida tovarlar narxlari o'zgarishining umumiy INI o'sishiga qo'shgan hissasi 8,1 f.d.ga yetdi. Ushbu davrda nooziq-ovqat mahsulotlar va pullik xizmatlar narxlari ta'siri dinamikasi barqaror ravishda o'sib borgan. Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich yilning dastlabki to'rt oyida o'sib, keyinchalik, mavsumiy omillar hisobiga ta'sir ulushi pasayib bordi (avgust oyida 2,2 darajagacha) va sentyabrdan boshlab ta'sir hissasi yana o'sish tomon harakatlanib, noyabr oyida ushbu ko'rsatkich 5,4 f.d.ga yetdi.

Ma'lumot uchun: 2018- yilning dekabriga nisbatan 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sishining umumiy INIga ta'siri iyul oyidan tashqari barcha oylarda ustun bo'ldi. 2019- yilning noyabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari ko'tarilishining ta'siri 6,5 nooziq-ovqat mahsulotlari 3,6 va xizmatlar bo'yicha 3,2 f.d.ga yetdi.

Shunday qilib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylari davomida oziq-ovqat infliyatsiyasining umumiy INI o'sishiga qo'shgan hissasi 2020- yilning shu davriga nisbatan 1,1 darajaga yuqori bo'lgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar orasidagi farq mos ravishda 0,9 va 1,8 darajani tashkil etgan.

**2020- yilning noyabrida tovarlar va xizmatlar asosiy
guruhlari narxlari o'zgarishining umumiy INI
o'sishidagi ta'siri tuzilmasi, % da**



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



- Oziq-ovqat mahsulotlari**
- Nooziq-ovqat mahsulotlar**
- Xizmatlar**

2019- yilning dekabriga nisbatan 2020- yilning noyabrida ta'sir ulushi ko'rsatkichlari bo'yicha umumiy INI o'sishida oziq-ovqat mahsulotlarining hissasi 56,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 28,4 % va xizmatlar 14,8 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari hissasi 48,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 27,1 % va xizmatlar 24,2 % ni tashkil etgan.


O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan 2019 va 2020- yillarning yanvar-noyabrida asosiy guruhlari bo'yicha oylik INI ni taqqoslash natijalariga ko'ra, 2020- yilning tahlil qilinayotgan so'nggi davriga kelib, oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va aholiga pullik xizmatlar narxlari indeksi 2019- yilning noyabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan past bo'ldi. Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha ko'rsatkichlar farqi 2,1 nooziq-ovqat mahsulotlar 3,5 va xizmatlar 9,8 darajani tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining yillik INI dinamikasi, % da

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan


Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar



2019 va 2020- yillarning yanvar-noyabr oylari davomida tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlarining yillik INI ni taqqoslash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, qayd etilgan davrda oziq-ovqat mahsulotlari ko'rsatkichlari bo'yicha maksimal mutlaq farq aprel oyida (3,1 daraja), nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha sentabr va oktabrda (3,9 daraja), xizmatlar bo'yicha esa sentabrda qayd etilgan (13,6 daraja).

Tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining yillik umumiy INI o'sishiga ta'siri bo'yicha, joriy yilning noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi sababli ushbu ko'rsatkich 6,9 f.d.ga, nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sirida 2,9 f.d.ga, xizmatlar ta'sirida 1,5 f.d.ga oshdi.

2019- yilning noyabridan 2020- yilning noyabr oyiga qadar asosiy guruhlar bo'yicha narxlar ko'tarilishining umumiy INI o'sishidagi ulushiga ko'ra, umumiy ta'sir doirasida oziq-ovqat mahsulotlari ta'sirining ulushi 61,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 25,7 % va xizmatlar ulushi 13,3 % ni tashkil etdi.

**Tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining umumiy INI o'sishidagi hissasi,
f.d. va % da**





o'tgan yilning noyabr oyiga nisbatan

2019- yil noyabr

2020- yil noyabr

8,0 4,1 3,5

6,9 2,9 1,5



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat
mahsulotlar



Xizmatlar

Ma'lumot uchun: 2018- yilning noyabriga nisbatan 2019- yilning noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi natijasida umumiy INI 8,0 f.d.ga, nooziq-ovqat mahsulotlar ta'sirida 4,1 f.d. va xizmatlar ta'sirida 3,5 f.d.ga oshgan.

Salmoq ko'rsatkichlari bo'yicha ta'sir nisbati mos ravishda 51,3 %, 26,3 % va 22,4 % ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining INI, % da

Noyabr

o'tgan oyga nisbatan

2019- yil 103,0
2020- yil 102,4

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

2019- yil 114,8
2020- yil 112,6

o'tgan yilning noyabriga nisbatan

2019- yil 118,4
2020- yil 116,3



✓ 2020- yilning noyabrida kuzatuvdag'i oziq-ovqat mahsulotlari narxlарining oy davomidagi o'rtacha o'sish sur'ati:

2,4 %

✓ 2019- yilning noyabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlарining oy davomidagi o'rtacha ko'tarilish darajasi:

3,0 %

✓ 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlарining o'rtacha o'sish darajasi:

12,6 %

✓ 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlарining o'rtacha o'sish darajasi:

14,8 %

✓ 2020- yilning noyabr oyida mazkur guruh bo'yicha yillik umumiy INIning o'sish sur'ati:

16,3 %

✓ 2018- yilning noyabriga nisbatan 2019- yilning noyabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'sish sur'ati:

18,4 %

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida **oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha oylik INI o'sish sur'ati 1,2 %**, 2019- yilning mos davrida esa **1,3 %** ni tashkil etgan.



2020- yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining INI, % da

○ o'tgan oyga nisbatan

○ o'tgan yilning dekabriga nisbatan



Mazkur guruh bo'yicha o'tgan oyga nisbatan qisqa muddatli INI ma'lum ma'noda meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy qimmatlashishi, shuningdek, shakar, qandolat, go'sht, sut, yog' va moy mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi ta'sirida shakllandi.

Joriy yilning noyabr oyida kuzatilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlaridan boshqalarga nisbatan meva-sabzavot mahsulotlari

(7,8 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi. Yog'-moy mahsulotlari narxlari oy davomida 3,3 %, go'sht, parranda go'shti va baliq 1,5 %, shakar, choy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari 1,5 %, sut mahsulotlari 1,2 % ga ko'tarildi. Umumiy ovqatlanish muassasalaridagi narxlар oy davomida 3,1 %, spirtli ichimliklar 1,1 %, alkogolsiz ichimliklar 0,3 % ga qimmatlashdi.

2019- yilning oxiriga nisbatan tuxum (33,0 %), yog' va moylar (24,2 %), go'sht, parranda go'shti va baliq (16,7 %), shuningdek, non mahsulotlari (14,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.


Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabr oyida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari orasida tuxum (12,5 %) hamda mevasabzavot (6,5 %) mahsulotlari narxlari sezilarli darajada ko'tarilgan. Non (3,6 %), spirtli ichimliklar (3,4 %) va go'sht mahsulotlari narxlari esa (2,0 %) biroz past sur'atlarda oshgan.

2018- yilning dekabr oyiga nisbatan narxlarning o'sishi borasidagi yetakchilik tuxum (23,2 %), non (22,8 %) hamda go'sht mahsulotlariga (22,4 %) tegishli bo'lgan.

Har bir guruh mahsulotlari narxlari o'zgarishining batafsil tahlili quyidagicha aks etgan:



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha non mahsulotlarining INI dinamikasi, % da



2020- yilning yanvar-noyabrida **non mahsulotlari** narxlarini o'sishining eng yuqori darajasi aprelda qayd etilib, narxlari o'rtacha 4,3 % ga oshgan. Ushbu guruhnинг yanvar-noyabr oylaridagi INIning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,2 % ni tashkil etdi.

Non mahsulotlari (yorma va dukkakkililar bilan)		2020- yilning noyabrida narxlarning o'sishi (pasayishi), % da			
	+0,5		0,1		+0,4
	13,5		+4,8		+6,1
	+7,6		+0,6		
Bug'doy uni	1- navli bug'doy unidan non	Oliy navli bug'doy unidan non	Obinon		
	+1,1		+0,9		+1,5
	+15,1		+17,3		+13,8
Makaron, spagetti	Vermishel	Ugra	Guruch va oqshoq		
	-0,6		+2,9		-0,5
	+50,8		+24,4		+33,7
Grechka	No'xat	Loviya	Mosh		
	oy davomida		yil boshidan		


Non mahsulotlaridan (yorma va dukkakkilarni qo'shgan holda) oy davomida ushbu guruhga tegishli boshqa mahsulotlarga nisbatan no'xat (2,9 %), shuningdek, ugra (1,5 %) narxlari sezilarli darajada oshdi. Grechka (-0,6 %) loviya (-0,5 %) va mosh (-0,2 %) narxlari esa nisbatan arzonlashdi.

Yil boshidan grechka (1,5 baravar) va loviya (1,4 baravar) narxlari boshqalarga nisbatan yuqori darajada ko'tarildi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabrida non mahsulotlari (yorma va dukkakkililar bilan) narxlari oy davomida 3,6 % (yil boshidan 22,8 %)ga qimmatlashgan. Bir oyda oliy navli bug'doy unidan non (8,3 %), un (5,8 %), 1- navli bug'doy unidan non (4,7 %) narxlari sezilarli darajada oshgan. 2018- yilning dekabriga nisbatan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik 1-navli bug'doy unidan non (40,3 %) va mosh (32,2 %) narxlariga tegishli bo'lgan.



2020- yilning yanvar-noyabrida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlarining INI dinamikasi, % da



Izoh: shu va keyingi o'rinnlarda rim raqamlarida oylar nomi ko'rsatilgan.

Go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlari narxlarining oy davomidagi yuqori o'sishi sentyabrda (3,8 %), past sur'atlarda o'sishi esa yanvar, iyun va iyul oylarida qayd etilgan (0,4 % dan).

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning noyabr oyida guruhning INI 116,7 % ni, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,4 % ni tashkil etgan.

Go'sht, parranda go'shti va baliq

2020- yilning noyabrida narxlarning o'sishi (pasayishi), % da

	+1,5		+1,6		+1,7		+2,2
	+20,0		+20,0		+24,2		+13,7
Mol go'shti (suyaksizdan tashqari)		Suyaksiz mol go'shti		Qo'y go'shti		Cho'chqa go'shti	
	+1,4		+0,5		+0,6		+0,5
	+16,5		+10,3		+2,0		+4,8
Go'sht qiymasi		Tirik va sovutilgan baliq		Parranda go'shti (sonlaridan tashqari)		Tovuq boldiri, son qismlari	
	oy davomida		yil boshidan				

Go'sht mahsulotlari narxlari oy davomida o'rtacha 1,5 % (yil boshidan 16,7 %)ga qimmatlashdi. Cho'chqa go'shti narxlari bir oyda 2,2 % (13,7 %), qo'y go'shti 1,7 % (24,2 %), suyaksiz mol go'shti 1,6 % (20,0 %), boshqa mol go'shti 1,5 % (20,0 %), go'sht qiymasi 1,4 % (16,5 %)ga ko'tarilgan. Parranda go'shti narxlari oy davomida 0,5-0,6 % (yil boshidan 2,4 % dan 4,8 % gacha oraliqda), tirk va sovutilgan baliq 0,5 % (10,3 %)ga qimmatlashgan.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabrida go'sht mahsulotlarining narxlari o'rtacha 2,0 % ga oshgan. Shu tariqa, ushbu guruh bo'yicha narxlar o'sishidagi yetakchilik parranda go'shtiga tegishli bo'lib, narxlar 3,7 – 6,6 % oraliqda qimmatlashgan.

O'tgan yilning yanvar-noyabr oylarida go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlari narxlari o'rtacha 22,4 % ga qimmatlashgan. Ushbu davrda suyakli mol go'shti va qo'y go'shti narxlari boshqalarga nisbatan yuqori darajada qimmatlashib, narxlar mos ravishda 25,9 % va 24,0 % ga ko'tarilgan.



2020-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tuxumning INI dinamikasi, % da



Tuxum narxlarining oy davomidagi eng yuqori o'sish sur'ati oktabrda (oy davomida 17,7 %), pasayish esa mart oyida (-3,5 %) qayd etildi.

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning noyabr oyida tuxumning INI 133,0 %, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2,6 % ni tashkil etgan.






2020- yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sut mahsulotlarning INI dinamikasi, % da

Sut mahsulotlari guruhni bo'yicha narxlarning oy davomidagi maksimal o'sishi aprelda (2,5 %), minimali iyul oyida qayd etilgan (0,1 %). Noyabr oyida narxlar o'rtacha 1,2 % ga oshgan.

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning noyabrida sut mahsulotlarning INI 109,7 % ni, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,8 % ni tashkil etgan.



Sut mahsulotlari



2020- yilning noyabr oyida narxlarning o'sishi, % da




Sut mahsulotlariidan oy davomida yangi sog'ilgan sut (1,9 %) va qaymoq (1,5 %) narxlari boshqalarga nisbatan yuqori darajada qimmatlashdi.

Yil boshidan ham sut (14,2 %) va qaymoq (12,5 %) narxlarining sezilarli sur'atlarda ko'tarilganligi qayd etilgan.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabr oyida sut (3,0 %) va tvorog (2,2 %) mahsulotlari narxlari yuqori darajada ko'tarilgan. 2018- yil oxiriga nisbatan narxlarning o'sishida yetakchi o'rinalar qatiq va chuchuk qatiq (21,3 %) hamda yangi sog'ilgan sut (21,0%) narxlariga tegishli bo'lgan.



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha mevalar, sabzavotlar va kartoshkaning INI dinamikasi, % da



Ushbu guruh tovarlaridan noyabr oyida bodring va pomidor narxlari sezilarli ravishda o'sdi (mos ravishda 2,1 va 1,9 baravar).

Shu bilan birga, limon (-6,6 %), sabzi (-5,6 %) sholg'om (-5,5 %), sarimsoq (-2,5 %) narxlarining pasayishi qayd etildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining oy davomidagi yuqori o'sishi noyabrdagi (7,8 %), pasayishi esa iyunda (-8,4 % ga) qayd etilgan.

Shu bilan birga, joriy yilning noyabrida ushbu mahsulotlarning o'rtacha narxlari o'tgan yilning dekabridagi narxlarga nisbatan 4,2 % ga yuqori bo'ldi.



**Mevalar, sabzavotlar
va kartoshka**

**2020- yilning noyabr oyida
narxlarning o'sishi (pasayishi), % da**

Bodring



+107,6

-23,1

Kartoshka



+1,5

+37,5

Piyoz



+3,8

-14,8

Sabzi



-5,6

+31,5

Karam



+1,1

-2,9

Sarimsoq



-2,5

-4,7

Bulg'or qalampiri



+61,7

-74,5

Pomidor



+86,2

-40,9

Sholg'om



-5,5

+20,6

Limon



-6,6

+86,8

Uzum



+14,8

+9,4

Olma



+8,1

-7,3

Anor



+7,6

-8,9

Banan



+1,8

+20,6

Nok



+9,8

+14,9

oy davomida

yil boshidan

2019- yilning oxiriga nisbatan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik limon (1,9 baravar), pasayish bo'yicha bulg'or qalampiriga (74,5 %) tegishlidir.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabrida mevalar, sabzavotlar va kartoshka narxlari oy davomida o'rtacha 6,5 % ga qimmatlashgan. Bodring narxlari sezilarli darajada ko'tarilib (1,7 baravar), sabzi narxlari birmuncha arzonlashgan (-21,0 %).

2019- yilning yanvar-noyabrida ushbu guruh mahsulotlari narxlari o'rtacha 0,8 % ga oshgan. Narxlarning maksimal o'sishi sarimsoqda (2,2 baravar), pasayishi esa bodringda qayd etilgan (60,3 %).





2020- yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha shakar, choy va boshqa mahsulotlarning INI dinamikasi, % da

Shakar, choy va boshqa mahsulotlar

narxlaringin oy davomidagi yuqori o'sishi sentabrda (2,3 %) minimali esa yanvar va iyulda (0,2 %) qayd etilgan. Noyabr oyida mazkur guruh tovarlari o'rtacha 1,5 % ga ko'tarildi.

Yil boshidan shakar, choy va boshqa mahsulotlar narxlari o'rtacha 10,2 % ga qimmatlashib, narxlarning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,9 % ni tashkil etgan.



Shakar, choy va boshqa mahsulotlar

2020- yilning noyabrida narxlarning o'sishi, % da

oy davomida yil boshidan




Joriy yilning noyabr oyida shakar narxlari 2,4 % (yil boshidan 18,5 %), oq qand 2,5 % (16,2 %) ga qimmatlashdi. Qandolat mahsulotlari narxlari oy davomida 1,5 % (yil boshidan 10,3 %), kofe va choy 1,2 % (7,4 %), boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari (tuz, ziravorlar va boshqalar) 0,8 % (6,0 %) ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabrida shakar, choy va boshqa mahsulotlar narxlari o'rtacha 1,0 % ga, jumladan shakar 1,6 %, kofe va choy 0,9 %, qandolat mahsulotlari 0,8 %, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari 0,6 % ga qimmatlashgan. 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida ushbu guruh mahsulotlari 10,6 % ga qimmatlashib, shakar narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik qilgan (16,2 %).



2020- yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yog' va moy mahsulotlarining INI dinamikasi, % da



2020- yilning o'n bir oyi davomida **yog' va moy** mahsulotlari narxlaringin oy davomida sezilarli darajadagi o'sishi oktabr oyida qayd etilgan (9,5 %). Noyabr oyida guruh bo'yicha narxlari 3,3 % ga ko'tarilgan. Yil boshidan ushbu guruh mahsulotlari 24,2 % ga ko'tarilib, o'rtacha oylik o'sishi sur'ati 1,1 % ni tashkil etdi.

O'tgan oy davomida paxta yog'i narxlari 4,1 %, kungaboqar yog'i 3,4 %, eritilgan va hayvon yog'lari 3,3 %, margarin 2,0 % sariyog' 1,7 %, ga ko'tarilgan.

Yil boshidan paxta yog'i 29,2 %, kungaboqar yog'i 28,1 %, sariyog' 12,9 %, eritilgan va hayvon yog'lari 13,6 % va margarin 11,8 % ga qimmatlashgan.



Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabrida yog'-moy mahsulotlari narxlari oy davomida 0,8 % (yil boshidan 7,1 %)ga, jumladan, sariyog' 2,7 % (17,4 %), iste'mol yog'lari 1,3 % (11,8 %), margarin 0,8 % (12,0 %), kungaboqar yog'i 0,7 % (5,3 %), paxta yog'i 0,2 % (3,9 %) ga ko'tarilgan.

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan yillik davrda oziq-ovqat mahsulotlaridan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi o'rinni hamon tuxum narxlari egallashda davom etib, narxlar 1,4 baravarga ko'tarilgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining INI, % da

2019- yilning noyabriga nisbatan

116,0



Non
mahsulotlari

117,7



124,0

Go'sht, parranda go'shti
va baliq

111,6



118,6

Sut
mahsulotlari

142,3



Tuxum

111,1



112,8

Shakar, choy
va boshqa mahsulotlar

118,5



110,8

Mevalar, sabzavotlar
va kartoshka

124,7



109,3

Yog'
va moylar

104,6



113,4

Alkogolsiz
ichimliklar

107,4



117,0

Spirlli
ichimliklar

2019- yil noyabr

2020- yil noyabr


Oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari narxlarining ko'tarilishi va oy davomidagi umumiy INIning o'sishiga qo'shgan hissasi tahliliga ko'ra, meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishining salmog'i ulkanligini ko'rish mumkin (0,61 f.d.). Go'sht, parranda go'shti va baliq narxlarining ko'tarilishi hisobiga umumiy INI oy davomida 0,15 f.d., yog' va moylar ta'sirida 0,10 f.d., shakar, choy va boshqa mahsulotlar ta'sirida 0,09 f.d., sut mahsulotlari ta'sirida 0,04 f.d., non mahsulotlari hisobiga 0,03 f.d.ga oshdi. Tuxum narxlarining arzonlashganligi esa umumiy ko'rsatkichning 0,01 f.d.da pasayishiga zamin yaratdi.



**2020- yilning noyabr oyida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat
mahsulotlari asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining
INI o'sishidagi ta'siri tuzilmasi, f.d.**

o'tgan oyga nisbatan

Oziq-ovqat mahsulotlari guruhlari



Yig'ma INI o'sishidagi umumiy ta'siri = 1,0 f.d.

- non mahsulotlari (+0,03)
- go'sht, parranda go'shti va baliq (+0,15)
- sut mahsulotlari (+0,04)
- tuxum (-0,01)

- meva, sabzavot va kartoshka (+0,61)
- shakar, choy va boshqalar (+0,09)
- yog' va moylar (+0,10)
- boshqalar (+0,01)

2019- yilning dekabriga nisbatan umumiy INI tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotlaridan salmoqli ulush go'sht, parranda go'shti va baliq (1,71 f.d.) shuningdek, non (0,97 f.d.) mahsulotlari guruhiga tegishli. 2019- yilning dekabriga nisbatan yog' va moylar narxlari o'sishi ta'sirida umumiy INI 0,72 f.d., shakar, choy va qandolat mahsulotlari ta'sirida, 0,61 f.d., sut va meva-sabzavot mahsulotlari ta'sirida 0,33 f.d., shuningdek, tuxum ta'sirida 0,28 f.d.ga oshdi.

Yillik davrda umumiy INI o'sishiga oziq-ovqat mahsulotlaridan go'sht (1,81 f.d.), meva-sabzavot (1,43 f.d.) shuningdek, non mahsulotlari (1,10 f.d.), sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlarning iste'mol narxlari indeksi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarning INI, % da

Noyabr

o'tgan oyga
nisbatan

2019- yil 100,8

2020- yil 100,9

o'tgan yilning
dekabriga nisbatan

2019- yil 110,4

2020- yil 107,8

o'tgan yilning
noyabriga nisbatan

2019- yil 111,8

2020- yil 108,3



✓ 2020- yilning noyabrida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari darajasining oy davomidagi o'sish sur'ati:

0,9 %

✓ 2019- yilning noyabrida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari oy davomidagi o'ttacha ko'tarilish darajasi:

0,8 %

✓ 2019- yilning dekabriga nisbatan 2020- yilning noyabr oyida mazkur guruh narxlarining o'sish sur'ati:

7,8 %

✓ 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sish darajasi:

10,4 %

✓ 2020- yilning noyabr oyida mazkur guruh narxlarining yillik o'sish sur'ati:

8,3 %

✓ 2018- yilning noyabriga nisbatan 2020- yilning noyabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sish sur'ati:

11,8 %

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida nooziq-ovqat mahsulotlar INIning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,7 %, 2019- yilning yanvar-noyabrida esa 0,9 % ni tashkil etgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar alohida guruhlarining INI, % da

o'tgan oyga nisbatan

	2019- yil noyabr	2020- yil noyabr	
Kiyim-kechak	Oyoq kiyim	Mato va yigirilgan iplar	Maishiy to'qimachilik mahsulotlari
101,3	101,3	101,2	101,2
101,0		101,1	101,0
100,4	101,4	100,8	100,8
101,6	100,4	100,9	101,8
99,5	100,4	100,7	101,0
100,6	100,3	100,9	
100,6	100,1		
Yuvish va tozalash vositalari	Shaxsiy transport	2020- yilning noyabr oyida kuzatuvdagи nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlari orasida narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik avvalgi ikki oydagи kabi, avtomobillar uchun yoqilg'i narxlariga tegishli bo'lib, bunda narxlarning o'rtacha 1,6 % ga oshganligi kuzatilgan	

Ma'lumot uchun: 2019- yilning noyabrida nooziq-ovqat mahsulotlardan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi o'rirlarni zargarlik buyumlari (1,8 %) va qurilish materiallari narxlari (1,4 %) band etgan.




2020- yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar alohida guruuhlarining INI dinamikasi, % da

o'tgan oyga nisbatan


— 2019- yil

— 2020- yil


Kiyim-kechak




Oyoq kiyim




Mato va yigirilgan iplar




Maishiy to'qimachilik mahsulotlari




Madaniy mollar




Qurilish materiallari



Dori-darmonlar



Shaxsiy gigiyena mahsulotlari






2020- yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar alohida guruhlarining INI dinamikasi, % da

o'tgan oyga nisbatan


— 2019- yil

— 2020- yil


Avtomobillar uchun yoqilg'i




Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari




Tamaki mahsulotlari




Zargarlik buyumlari



Yuvish va tozalash vositalari



Shaxsiy transport vositalari



2019- yilning dekabriga nisbatan bosma-nashr mahsulotlari (14,3 %), dori-darmonlar (12,7 %) va qurilish materiallari (10,9 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.



**2020- yilning noyabr oyida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat
mahsulotlar alohida guruhlarining INI, % da**

Kiyim-kechak



Oyoq kiyim



Mato va yigirilgan iplar



Maishiy to'qimachilik mahsulotlari



Madaniy mollar



Qurilish materiallari



Dori-darmonlar



Shaxsiy gigiyena mahsulotlari



Avtomobillar uchun yoqilg'i



Asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari



Kitoblar, gazetalar va jurnallar



Zargarlik buyumlari

Yuvish va tozalash vositalari



Mebel



Tamaki mahsulotlari



Shaxsiy transport vositalari



o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning noyabriga nisbatan

Yillik davrda narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchilik kitoblar, gazetalar, jurnallar (14,5 %), dori-darmonlar (13,4 %), qurilish materiallari (11,4 %) va tamaki mahsulotlariga (10,8 %) tegishli.

Oy davomida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari o'zgarishining umumiyl INI o'sishiga qo'shgan hissasiga ko'ra, 2020- yilning noyabr oyi yakuni bo'yicha, salmoq vaznlarni hisobga olgan holda kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,14 f.d.), avtomobillar uchun yoqilg'i hamda ehtiyot qismlar (0,05 f.d.) narxlari sezilarli darajada ta'sir etgan.



**2020- yilning noyabr oyida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat
mahsulotlar asosiy guruhlari narxlari o'sishining
umumiy INIdagi hissasi, f.d.**

o'tgan oyga nisbatan

Nooziq-ovqat mahsulotlar guruhi



Yig'ma INI o'sishidagi umumiy ta'siri = 0,3 f.d.

kiyim-kechak va oyoq kiyim (+0,14)

avtomobillar uchun yoqilg'i va ehtiyyot qismalar (+0,05)

dori-darmonlar (+0,03)

asosiy maishiy mahsulotlar va elektr jihozlari, oshxona anjomlari (+0,02)

shaxsiy gigiyena mahsulotlari, yuvish va tozalash vositalari (+0,02)

mebel va maishiy to'qimachilik mahsulotlari (+0,02)

mato va yigirilgan iplar (+0,01)

boshqalar (+0,01)

2019- yilning dekabriga nisbatan joriy yilning noyabr oyida nooziq-ovqat mahsulotlar asosiy guruhlari orasida umumiy INIning o'sishiga qo'shgan hissasi bo'yicha yetakchi o'rirlarni kiyim-kechak va oyoq kiyim (0,79 f.d.), qurilish materiallari hamda dori-darmonlar (0,36 f.d.) narxlari band etgan. Umumiy hisobda, ushbu guruhlar nooziq-ovqat mahsulotlar umumiy ta'sirinining 55,9 % ini tashkil etadi.

Yillik davrda umumiy INI o'sishiga kiyim-kechak va oyoq kiyim (umumiy ta'siri 0,88 f.d.), qurilish materiallari hamda dori-darmonlar narxlari (0,37 f.d.dan) ta'siri ustunlik qildi. Qayd etilgan guruhlarning ulushi yillik davrdagi nooziq-ovqat mahsulotlar INI umumiy ta'sirining 55 % dan ortig'ini tashkil etgan.

Xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun
pullik xizmatlarning INI, % da

Noyabr

o'tgan oyga
nisbatan

2019- yil 100,6
2020- yil 100,9

o'tgan yilning
dekabriga nisbatan

2019- yil 114,9
2020- yil 106,1

o'tgan yilning
noyabriga nisbatan

2019- yil 116,3
2020- yil 106,5



✓ 2020- yilning noyabrida aholi uchun pullik xizmatlar tariflari darajasining oy davomidagi o'sish sur'ati:

0,9 %

✓ 2019- yilning noyabrida pullik xizmatlar narxlarining oy davomidagi o'rtacha ko'tarilish darajasi:

0,6 %

✓ 2019- yilning dekabriga nisbatan 2020- yilning noyabrida xizmatlar sohasidagi tariflarning o'sish sur'ati:

6,1 %

✓ 2019- yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlar narxlarining o'sish darajasi:

14,9 %

✓ 2020- yilning noyabr oyida aholi uchun pullik xizmatlar tariflarning yillik o'sish sur'ati:

6,5 %

✓ 2018- yilning noyabriga nisbatan 2019- yilning noyabrida xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati:

16,3 %

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi uchun pullik xizmatlar tariflarining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,5 %, 2019- yilning yanvar-noyabrida esa 1,3 % ni tashkil etgan.

Joriy yilning noyabr oyida tariflarning o'sishi bo'yicha yetakchilik maishiy va tibbiy xizmatlarga tegishli bo'lib, narxlar oy davomida 1,6 % ga qimmatlashdi.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
aholi uchun pullik xizmatlar alohida guruhlarining
INI, % da**



o'tgan oyga nisbatan

2019- yil
noyabr

101,1

Maishiy
xizmatlar

100,1

Uy-joy
kommunal
xizmatlari

100,2

Aloqa
xizmatlari

2020- yil
noyabr

101,6

100,8

100,1

2019- yil
noyabr

101,7

100,8

101,0

Yo'lovchi
transporti
xizmatlari

Dam olish
xizmatlari

Madaniyat
muassasalari
xizmatlari

2020- yil
noyabr

100,6

100,1

100,4

2019- yil
noyabr

100,4

100,0

Tibbiy
xizmatlar

Sport
xizmatlari

2020- yil
noyabr

101,6

101,4

2020- yil
noyabr

Ma'lumot uchun:
2019- yilning noyabr oyida pullik xizmatlar tariflarining oy davomida o'rtacha 0,6 % ga o'sishida yo'lovchi tashish (1,7 %) va maishiy (1,1 %) xizmatlar narxlarining ko'tarilishi yetakchilik qilgan.



**2020- yilning yanvar-noyabr oyida
O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik
xizmatlar alohida guruhlarining INI, % da**

o'tgan oyga nisbatan


Maishiy xizmatlar



Uy-joy kommunal xizmatlari



Aloqa xizmatlari



Yo'lovchi transporti xizmatlari



Dam olish xizmatlari



Madaniyat muassasalari xizmatlari



Tibbiy xizmatlar



Sport xizmatlari



2019- yilning dekabr oyiga nisbatan narxlarning o'sishi bo'yicha yetakchi o'rinalar davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lif tashkiloti (15,2 %), maishiy (11,4 %), dam olish (10,1 %), yo'lovchi tashish transporti (10,5 %) shuningdek, tibbiy xizmatlar (10,2 %) narxlariiga tegishli bo'ldi.

Yillik davrda asosiy guruhlar bo'yicha kuzatuvdag'i aholi uchun pullik xizmatlardan maktabgacha ta'lim tashkiloti (15,2 %), maishiy (12,5 %) va yo'lovchi tashish transporti (10,9 %) narxlarining sezilarli darajada o'sishi qayd etildi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha pullik xizmatlar alohida guruhlarining INI, % da

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

Xizmatlar nomi	2019- yil noyabr	2020- yil noyabr
Maishiy xizmatlar	117,6	111,4
Uy-joy kommunal xizmatlari	117,8	101,0
Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari	112,5	110,5
Aloqa xizmatlari	105,2	100,5
Madaniyat muassasalari xizmatlari	107,3	104,9
Sport xizmatlari	112,7	105,1
Dam olish xizmatlari	113,1	110,1
Tibbiy xizmatlar	111,1	110,2
Ta'lim xizmatlari	121,6	102,4
Maktabgacha ta'lim tashkiloti xizmatlari	120,5	115,2

o'tgan yilning noyabriga nisbatan

Xizmatlar nomi	2019- yil noyabr	2020- yil noyabr
Maishiy xizmatlar	119,8	112,5
Uy-joy kommunal xizmatlari	119,4	101,0
Yo'lovchi tashish transporti xizmatlari	114,6	110,9
Aloqa xizmatlari	105,5	100,5

Davomi

Xizmatlar nomi	2019- yil noyabr	2020- yil noyabr
Madaniyat muassasalari xizmatlari	111,1	105,4
Sport xizmatlari	114,6	105,6
Dam olish xizmatlari	113,4	110,3
Tibbiy xizmatlar	112,6	110,8
Ta'lim xizmatlari	122,0	102,7
Maktabgacha ta'lim tashkiloti xizmatlari	120,5	115,2

Oy davomida umumiy INIning o'sishiga maishiy (0,07 f.d.), uy-joy kommunal (0,05 f.d.) hamda tibbiy xizmatlar (0,04 f.d.) narxlari va tariflarining qimmatlashishi sezilarli hissa qo'shdi.



2020- yilning noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishining INI o'sishidagi ulushi, f.d.

o'tgan oyga nisbatan

Xizmatlar guruhlari



+0,07



+0,05



+0,04



+0,02



+0,01

Yig'ma INI o'sishidagi umumiy ta'siri = 0,2 f.d.

- maishiy xizmatlar (+0,07)
- tibbiy xizmatlar (+0,04)
- ta'lim xizmatlari (+0,01)

- uy-joy communal xizmatlari (+0,05)
- yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (+0,02)

2019-yilning oxiriga nisbatan aholiga pullik xizmatlarning asosiy turlaridan maishiy xizmatlar (0,52 f.d.), yo'lovchi tashish transporti xizmatlari (0,33 f.d.) hamda tibbiy xizmatlar (0,25 f.d.) tariflarining qimmatlashishi umumiy INI ko'rsatkichining o'sishiga salmoqli hissa qo'shgan. Umumiy hisobda, ular jami xizmatlar ta'sirining 78 % i, 2020-yilning yanvar-noyabr oylaridagi umumiy indeks o'sish sur'atining 11,6 % ni tashkil etgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan uch guruh yillik davrda ham umumiy INI ko'rsatkichning o'sishiga ta'siri jihatidan yetakchi bo'ldi. 2019-yilning noyabr oyiga nisbatan maishiy xizmatlar tariflarining o'sishi hisobiga umumiy INI 0,57 f.d.ga, yo'lovchi tashish transporti ta'sirida 0,34 f.d.ga, tibbiy xizmatlar ta'sirida 0,27 f.d.ga oshgan. Ushbu guruhlarning jami xizmatlar umumiy ta'siridagi ulushi 79 % dan, jami INIdagi ulushi esa 10 % dan ortig'ini tashkil etgan.



Ma'lumot uchun: ayrim faoliyat turlarini amalga oshirishda bir qator cheklovlarning saqlanib qolish sharoitida (masalan, mактабгача та'lim muassasalarining cheklangan faoliyi, ziyofat zallari va boshqalar), statistika organlari tomonidan "yetishmayotgan" pozitsiyalarni baholash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni qo'llaydilar.

Bunday sharoitda, "Pandemiya davrida iste'mol narxlari indeksining hisoblanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar" (XVJ), shuningdek, "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (XVJ, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Yevrostat, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Butunjahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti hamda "Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish va iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"da keltirilgan tavsiyalardan foydalangan.

Joriy yilning noyabr oyida narxlar va tariflar kuzatuvi uchun tanlangan savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari umumiy sonidan 95 % ida savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalari faoliyat yuritgan.

Amaldagi uslubiy nizomga asosan, narxlarni ro'yxatga olish har oyning 10- dan 20- sanasigacha amalga oshiriladi. Narxlarni ro'yxatga olish oralig'i to'liq bir oyni tashkil etadi.

Narxlar statistikasi boshqarmasi
Tel.: +998 (71) 202-80-36, 202-81-74